

YASHIL IQTISODIYOT ORQALI MAMLAKATDA IQTISODIYOTIDA
RAQOBAT MUHITNI YAXSHILASH YO'LLARI

Amirov Temur Mashrab o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti asisstenti,

Annotation: *this scientific article will talk about the extent to which competition occupies a place in the development of the economy of today's country through the green economy, its place in the life of society and, including, the competition that is inextricably linked with economic commodity-money turnover, trade, which takes place between states.*

Keywords: *competition, dumping price, marketing, economic competition, political competition, regional relations.*

Kirish

Bugungi davrda ko'plab mamlakatimiz bozor iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali iqtisodiy ahvolini yaxshilabkina qolmay, rivojlangan mamlakatlar bilan tashqi aloqalarni (savdo-sotiq, diplomatik aloqalar va h.k) mustahkamlash ko'zda tutilgan. Hammaga ma'lumki, yashil iqtisodiyot tovar-pul aylanmalari, raqobat hamda ijtimoiy-siyosiy aloqalarda muhim ro'l o'ynaydi. Biz yashil iqtisodiyot raqobatga ta'sirini shunday ifodalashimiz mumkin: raqobat iqtisodiyotda muhim o'rinni egallab u innovatsiyalarni rag'batlantiradi, chunki kompaniyalar bozor ulushini oshirish maqsadida yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishga intilishadi. Ikkinchidan, raqobat narxlarni pasaytiradi va iste'molchilar uchun yanada qoniqarli sharoitlar yaratadi, bu esa xaridorlarning tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot to'g'ri yuritilishida raqobat resurslarni samarali taqsimlanishiga yordam beradi. Raqobatning kuchli bo'lishi yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi va jamiyat farovonligini oshiradi. Bu bilan birga, yashil iqtisodiyot davlatlar o'rtasidagi global iqtisodiy aloqalarni ham kuchaytiradi, bu esa xalqaro savdo va investitsiya tendentsiyalar rivojlantiradi. Yashil iqtisodiyotning asosiy mexanizmlaridan biri raqobatni to'g'ri yo'lga qo'yish hisoblanadi va uning samarali ishlashi iqtisodiy barqarorlik va o'sishga hissa qo'shadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatlar o'rtasidagi raqobat ular o'zlari ishlab chiqargan mahsulot ya'ni, ichki yalpi maxsulotini boshqa davlatga sotish va sotib olish kabi iqtisodiy jaroyonlarni olib bormoqda. Davlatlar o'rtasidagi raqobat iqtisodiy (bu iqtisodiy subyektlar (shaxslar, kompaniyalar yoki davlatlar) o'rtasidagi mahsulotlar, xizmatlar yoki resurslar uchun kurashni anglatadi. Bu raqobat yashil iqtisodiyot orqali qarajak, bu albatta to'g'ri innovatsion loyihalar orqali manfatlarga boy va inqirozga chek quishni birinchi qadamlari desak mubolag'a bo'lmaydi. Yashil iqtisodiyotda raqobat iqtisodiy o'sishga, innovatsiyalarga va iste'molchilar foydasiga hal bo'ladi. Iqtisodiy-siyosiy qarashlar asosan, davlatlar o'rtasida harbiy bloklar o'rtasida kuch, resurslar, texnologiyalar va mudofaa imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan kurashdir. Yashil iqtisodiyot esa, albatta bu cheklovlarni oldini olishda raqobatni to'g'ri

yo'lga quyadi va hududlardagi resurslardan samarali foylanishda, hamda bozorni va texnologiyalarni samarali boshqarish orqali davlatlar o'rtasida kuchli o'zaro ta'sirni kuchaytiradi. Davlatlar o'z iqtisodiyotlarini mustahkamlash va xalq farovonligini oshirish maqsadida eksportni ko'paytirish va investitsiyalarni jalb etishga intiladi. Siyosiy raqobat esa diplomatik aloqalar faqatgina Harbiy bloklarni davlatlar o'rtasida kuch harakatlarini jihatlaydi, ammo kuchsiz davlatlar qurollanish poygasi ortda qolishi va xavfsizlik strategiyalarida o'zini ifodaydi. Yashil iqtisodiyot orqali raqobatni kuchaytirish bu strategik jarayonlarga qarmay o'zining jahon savdo tizimida oz' o'rnini egalashga imkon beradi.

Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyili davlatning butun iqtisodiyoti ochiqlik siyosatini ilgari so'rish tamg'alanganligidir. Bu albatta davlatlar o'rtasida savdo-sotiq tizimida barqarorlikni ta'minlashdir. Yashil iqtisodiyot orqali samarali raqobat rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, ammo shu bilan bir qatorda raqobatning ma'lum bir ziddiyatlarga ham olib kelib qo'yishi ham mumkin. Davlatlar o'rtasidagi raqobat xalqaro munosabatlarda muvozanatni saqlash zarurligini ko'rsatadi. Yashil iqtisodiyot faoliyatni rag'batlantiradi, innovatsiyalarni oshiradi, narxlarni pasaytiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi resurslar samarali taqsimlanadi, zarur vazifalarni bajaradi. Yashil iqtisodiyot jamiyatda foydasi ham zarari ham bo'lishi mumkin, ammo yashil iqtisodiyot mamlakat iqtisodiyotini o'sishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi iqtisodiy jarayonlarni tezkor va samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratdi. Bu jarayon mamlakatda iqtisodiy o'sishning yangi davriga asos solinadi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi pandemiyadan keyingi muammolardan biri ekologik barqarorlikning ahamiyatini yana bir bor ko'rsatib berdi. Ko'plab davlatlar iqtisodiy tiklanishni yashil texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bilan bog'lashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki global ekologik muammolarni hal qilishda ham muhim qadam bo'ldi. Yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq, iqtisodiy tiklanish jarayonida bir qator muammolar ham yuzaga keldi. Xususan, inflyatsiya darajasining o'sishi, ta'minot zanjirlaridagi davomiy uzilishlar va mehnat bozoridagi nomutanosibliklar iqtisodiy barqarorlikka jiddiy xavf tug'dirmoqda. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi tafovut, malakali ishchilarning yetishmovchiligi iqtisodiy tiklanish jarayonini sekinlashtiradi. Pandemiya davrida ko'plab odamlar o'z malakalarini yo'qotdi yoki yangi sohalarga moslashishga majbur bo'ldi. Bu holat mehnat bozorida yanada murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa

Yashil iqtisodiyotda raqobatni to'g'ri yo'lga qo'yish iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyotda raqobat orqali iste'molchilar uchun sifatli mahsulotlar va xizmatlar taqdim etiladi, narxlar esa barqaror bo'ladi. Yashil iqtisodiyot raqobat subyektlarning samaradorligini oshiradi va resurslarning optimal taqsimlanishini ta'minlaydi. Davlatlar o'rtasidagi muommolar yechimida yashil

iqtisodiyot infratuzilma bosqichlarini kuchaytirish maqsadida iqtisodiy, siyosiy va texnologik jarayonlarda harakat qilishni anglatadi. Bu musobaqalar davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatlarini shakllantiradi, yangiliklar va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Bizning maqolamizda yashil iqtisodiyot orqali raqobatni kuchaytirish asos bo'lib, u nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi. Barqaror yashil iqtisodiyot mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.M.Muhammedov, J.R.Zaynalov, U.N.Normurodov, I.I.Ayubov, Y.M.Halikov va boshqalar. Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2022. 520 b.
2. L. N. Xalikova. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024. 450 b.
3. Yu.P.Urunbayeva. Makroiqtisodiyot. Darslik/Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024 - 356 bet.
4. Shakarov A.B., Ulashev X.A. Makroiqtisodiyot: Darslik. – Samarqand: “SamDCHTI” nashriyoti, 2024. – 334 bet.
5. L.N.Xalikova, I.I.Ayubov, Z.U.Shodmonova, U.N.Normurodov. Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma/Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024 – 308 bet.
6. L.N.Xalikova, N.A.Kamilova, I.I.Ayubov, Z.U.Shodmonova. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma/Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2023 – 167 bet.